


NAVOIY VILOYATIDA OLIY TOIFALI ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH




Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni (2019- yil, kishi)




2019- yilda tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar 32 nafarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 8 taga (33,3 %) ko'paygan.



2019- yilda viloyatimizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 3 tadan iborat bo'lib, ulardan 1 tasi ilmiy tashkilot va 2 tasi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 32 nafar (ulardan ayollar 9 nafar) bo'lib, qabul qilinganlar 15 nafarni (ulardan ayollar 5 nafar), bitiruvchilar esa 3 nafarni (ulardan ayollar 2 nafar) tashkil etgan.



Navoiy viloyati bo'yicha doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni (2019- yil, birlikda)



2019- yilda viloyatimizda doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 2 tani tashkil etib, ulardan ilmiy tashkilotlarda 1 ta va oliy ta'lim muassasalarida 1 tani tashkil etmoqda. Ularda tahsil oluvchilar soni 1 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 1 nafarni hamda bitiruvchilar 1 nafarni tashkil etgan. Dissertatsiya himoya qilganlar 1 kishi.

NAVOIY VILOYATIDA ILMIY TADQIQOT VA TAJRIBA-KONSTRUKTORLIK ISHLANMALARNING BAJARILISHI



Ish turlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni (2019- yil, birlikda)*


| Jami | Ilmiy tadqiqotlar (ilmiy-tadqiqot ishlari) | shu jumladan: | loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlar | tajribaviy nusxanamunalar, partiyalar, buyumlar (mahsulotlar) tayyorlash | ilmiy-texnik xizmatlar |
|------|---|-------------------------|--|--|------------------------|
| | | fundamental tadqiqotlar | | | |
| 6 | 6 | 1 | 2 | 1 | 2 |

*Bitta tashkilot bir nechta ish turini bajarganligi sabab, ish turlari yig'indisi jami yig'indiga teng emas.

Ish turlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar soni, (2019- yil, birlikda)

| Jami | Ilmiy tadqiqotlar (ilmiy-tadqiqot ishlari) | shu jumladan: | loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlar | tajribaviy nusxanamunalar, partiyalar, buyumlar (mahsulotlar) tayyorlash | ilmiy-texnik xizmatlar |
|-------|---|-------------------------|--|--|------------------------|
| | | fundamental tadqiqotlar | | | |
| 1 202 | 1 176 | 1 | 18 | 1 | 7 |

Navoiy viloyatida tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari hajmi (2019- yil, mln.soʻmda)



Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2019- yilda jami ishlanmalar hajmi 64 217,7 mln. soʻmni tashkil qilib, ulardan davlat sektoridagi ishlanmalar 777,1 mln. soʻmni, tadbirkorlik sektoridagi ishlanmalar 32 188,1 mln. soʻmni, oliy taʼlim sektoridagi ishlanmalar 31 252,5 mln. soʻmni tashkil etdi. (Xususiy notijorat sektoridagi ishlanmalar hajmi 2019- yilda boʻlmagan).

Quyidagi rasmda ilmiy tadqiqot ishlari
4 ta sektorga ajratib koʻrsatilgan:




Ish turlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi (2019- yil, mln. so'mda)


| Jami | Ilmiy tadqiqotlar (ilmiy-tadqiqot ishlari) | shu jumladan: | loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlar | tajribaviy nusxa-namunalar, partiyalar, buyumlar (mahsulotlar) tayyorlash | ilmiy-texnik xizmatlar |
|----------|--|-------------------------|--|---|------------------------|
| | | fundamental tadqiqotlar | | | |
| 64 217,7 | 35 722,5 | 95,7 | 2 158,4 | 43,9 | 26 292,8 |

2019- yilda tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmining katta qismini ilmiy tadqiqotlar (ilmiy-tadqiqot ishlari) hajmi tashkil etgan, jami hajmning 55,6 %.

Tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi, (2019- yil, foizda)



Fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar (2019- yil, mln. so'mda)



Fan sohalari bo'yicha jami xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 61,7 %ga oshib, 63 310,3 mln. so'mni tashkil etgan.

39158,6



2018- yil

63310,3



2019- yil

31 346,5



tadbirkorlik
sektori

31 252,5



oliy ta'lim
sektori


711,3



davlat
sektori

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga jami xarajatlar 63 310,3 mln. so'mni tashkil etib, shundan tadbirkorlik sektorida 31 346,5 mln. so'mni, oliy ta'lim sektorida 31 252,5 mln.so'mni, davlat sektori bo'yicha 711,3 mln.so'mni, tashkil etgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fan sohasida 4 ta sektor bo'yicha ko'rsatkichlar chiqarib olinadi.

Fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar (2019- yil, %da)



2019- yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarning asosiy qismi tabiiy 62,1 % va ijtimoiy 12,5 % fanlariga qilingan xarajatlar tashkil etdi. Jami xarajatlardan gumanitar fanlariga 10,6 %, texnika fanlariga 10,0 %, qishloq xo'jaligi fanlariga 2,6 %, tibbiyot fanlariga esa 2,2 % to'g'ri keladi.

Tashkilotlarning o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni moliyalashtirish manbalari (2019- yil, mln. so'mda)


| Jami | Shu jumladan: | | | | | | |
|-----------------|-------------------------|--------------------------------|------------------------------|---|-----------------|--------------------------|------------------------------|
| | jami budjet mablag'lari | ulardan: | | budjet-dan tashqari fondlar mablag'lari | o'z mablag'lari | buyurtma-chi mablag'lari | xorijiy manbalar mablag'lari |
| | | respublika budjeti mablag'lari | mahalliy budjeti mablag'lari | | | | |
| 58 272,9 | 31 543,3 | 31 543,3 | - | - | 26 729,6 | - | - |

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar (2019- yil, kishida)

| | Jami (o'rindosh-larsiz) | shu jumladan: | | | | Pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajaruvchi ilmiy pedagogik xodimlar soni |
|------------------------|-------------------------|---------------------------|-----------|--------------------|-----------|--|
| | | tadqiqotchi mutaxassislar | texniklar | yordamchi xodimlar | boshqalar | |
| Navoiy viloyati | 764 | 277 | 46 | 320 | 121 | 555 |



2019- yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni
bajargan ilmiy xodimlarning jamiga nisbatan ulushi, %da



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Tel.: 79-223-54-98